

SHAXSIY VA OILAVIY BUDJETNI SHAKLLANTIRISH VA TAHLIL QILISH

*Qodirova Nilufar G'ayratovna,
Xakimova Shaxnoza Vohidjon qizi,
Hoshimova Hulkaroy Djurayevna*

Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oila (shaxsiy) byudjetini shakllantirib, to‘g‘ri sarflash va tejashni, maqsadlarni belgilab, ularga erishish yo‘lini aniqlashni, byudjet himoyasini ta‘minlash muhim ahamiyatga egaligini unutmasligimizni, bizni zarur mablag‘larsiz qoldirishi mumkin bo‘lgan turli xil kutilmagan holatlar bo‘lishi mumkinlii haqida aytib o’tilgan.

Kalit so‘zlar: Budget, oila budgeti, xarajatlar, moliyaviy savodxonlik, moliyaviy yostiqcha

Аннотация: В данной статье не следует забывать о важности формирования семейного (личного) бюджета, правильного расходования и накопления, постановки целей и определения путей их достижения, обеспечения защиты бюджета, что может оставить нас без необходимых средств. упоминаются непредвиденные обстоятельства.

Ключевые слова: Бюджет, семейный бюджет, расходы, финансовая грамотность, финансовая подушка.

KIRISH

Budget -ma'lum vaqt (hafta, oy yoki yil) mobaynida daromad va xarajatlarning umumiyligi miqdorini ko‘rsatib beradi. Budget davlatniki, kompaniyaniki, ma'lum bir inson yoki oilaniki bo‘lishi mumkin.

Oila budgeti – bu oilaga bir oy davomida kelib tushadigan er va xotinning ish haqi pullari, shuningdek turli hil yordam pullari va boshqa daromadlarning umumiyligi yig‘indisidir. Budgetni rejalashtirish – bu oilaning daromad va xarajatlarini to‘g‘ri hisob-kitob qilishdir.

Daromadlar o‘z ichiga barcha mablag‘lar manbaini oladi, jumladan: ish haqi, stipendiya, pensiya, ustamalar, lotoreya yutuqlari va h.k.

Oilaning har bir a’zosi oila budgetini tuzish jarayonida ishtirok etishi muhimdir. Bolalarni bunga o‘rgatish orqali siz ularga kelajakda o‘z shaxsiy budgetlarini boshqarish uchun asos yaratib berasiz.

Byudjet daromad va xarajatlardan tashkil topganligi sababli, pul qayerdan kelib, qaerga ketishini ko‘rsatadigan ro‘yxat tuzishingiz kerak. Daromad bilan hamma narsa aniq: bu ish haqi, yarim kunlik ish joylari, har qanday investitsiyalar uchun foizlar



yoki rejadan tashqari foyda, masalan sovg'alar. Ammo xarajat ancha murakkab. Xarajatlarning asosiy punktlari:

- ovqat;
- Kommunal xarajatlar;
- xaridlar;
- transport yoki avtomobil xarajatlari;
- sayohat yoki o'yin-kulgi.

Xarajatlarni taxminan doimiy va davriy bo'lishi mumkin. Doimiya oziq-ovqat, transport, uyali aloqa va Internet, communal xizmatlar, uy-ro'zg'or buyumlari kiradi. Davriya – ko'ngil ochish, sovg'alar, kiyim-kechak, sog'liq. Alovida punktga-kutilmagan xarajatlar va «xavfsizlik yostiqchasi» kiradi.

O'z punktlaringizni shakllantirish uchun sizga bir oz vaqt kerak bo'lishi mumkin: ovqatni kafelarga va uyda pishirishga ajratishingiz kerak, agar tez-tez sotib olsangiz «sneklar» ya'ni do'kondan sotib olinadigan yeguliklarni ham qo'shishingiz mumkin. Xaridlarni kiyim-kechak, zargarlik buyumlari yoki poyafzallarga bo'lish mumkin. Ammo doimiy ravishda bir xil miqdordagi mablag'ni sarflasangiz, communal xizmatlar, ijara haqi va aloqa uchun to'lashni bitta punktga kiritishingiz mumkin

Oila budgetini yuritishni nazorat qilib borish nima uchun kerak?

Budgetni nazorat qilish pulni boshqarishdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu sizga pulingizni tejashga va o'z mablag'laringizdan maksimal darajada samarali foydalanishga ko'mak berib sizga ko'proq xarajat qilishingizga yordam beradi.

Budgetni yuritishni ayrim ijobiy tomonlari:

1. Ortiqcha xarajatlarni qisqartirish

Statistikaga ko'ra daromad va xarajatlarining hisobini yuritmaydigan ko'pchilik odamlar ishlab topadigan pullariga qaraganda ko'proq xarajat qiladilar. Budgetni yuritib borish o'z mablag'laringizni nazorat qilishga va ortiqcha xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.

2. Maqsadlarga erishishdagi yordam

Budgetni boshqarishingiz tufayli sizda tayyor moliyaviy rejangiz bo'ladi. Unimuntazam ravishda kuzatish orqali siz qo'yilgan maqsadlaringizga erishishingizni nazorat qilib borishingiz mumkin. Maqsadlarga (telefon, mashina, mebel' va hokazolarni xarid qilish) erishish uchun har oyda ularga ma'lum miqdorda pul ajratib boring.

3. Moliyaviy savodxonlik va intizom darajasini oshirish

Vaqt o'tishi bilan siz rejaga to'liq amal qilishni va xarajatlarni keragidan oshirmsalikni o'rganib olasiz. Bu sizni sotuvchilar va reklamalar tomonidan jalb qilinadigan kutilmagan xaridlardan ajoyib tarzda ximoya qiladi. Shuning uchun nima xarid qilayotganingizni va u sizga haqiqatdan ham hozirgi vaqtda kerak ekanligini

oldindan yaxshilab o'ylab ko'rasiz. Oila budgetini rejalashtirgan va har bir ishlab topilgan pulni qaerga ketganligini ko'rgan odam biror narsani darhol sotib olish uchun qimmatbaho kreditlar va qarzlarni olmaydi. Bunga ehtiyoj sezilmaydi, chunki siz biron bir narsani sotib olishni rejaga kirg'izishingiz va uni bir oz kechroq (masalan, mavsum tugagandan so'ng va yaxshi chegirma bilan) qo'shimcha xarajatlarsiz sotib olishingiz mumkin.

4. Qarz girdobidan tezda chiqish yo'li

Agar oila katta qarzga botgan bo'lsa, rejalashtirish hozirgi vaqt uchun zarur va birinchi darajali bo'lgan maqsadlarga erishish uchun qaysi xarajatlarni qisqartirish mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bunday oila daromadlari oshganda bo'sh turgan mablag'larining katta qismini xaridlar yoki o'yin-kulgilarga emas, balki qarzlarni yopishga sarflaydi. Bularning barchasini hech kimdan qarzdor bo'limganingizdan so'ng tashkil qilish mumkin.

5. Moliyaviy xavfsizlik yostiqchasi

Sizning budgetingiz kutilmagan holatlar uchun xavfsizlik yostig'i bo'lishi mumkin. Oddiy tilda aytganda, bu qora kun uchun ajratilgan ma'lum miqdordagi pul. Ya'ni, bu oldindan aytib bo'lmaydigan qiyin vaziyatlarni "yumshatadigan" kapitaldir.

Har bir oila yoki shaxs uchun "moliyaviy yostiqcha" miqdori farq qiladi. Uning miqdori kamida 3-6 oylik xarajatlarga teng bo'lishi kerak,

"Moliyaviy yostiqcha" uchun muntazam ravishda qancha pul ajratib qo'yish zarur?

Aslida zaxirani shakllantirish unchalik qiyin emas, shunchaki, "oylik oldingizmi – avval o'zingizga pul ajrating" tamoyiliga amal qilishingiz zarur. Oila byudjeti xavfsizligini ta'minlash maqsadida daromadingiz miqdoridan qat'iy nazar kamida uning 15-20%ini tejashni boshlang.

Masalan, bir oila a'zosi 1 million so'm daromad olsa, u holda oyiga kamida 150-200 ming so'm tejalishi kerak. Shunday qilib, "moliyaviy yostiqcha" besh-yetti yil davomida asta-sekin shakllantiriladi.

"Moliyaviy yostiqcha" mablag'larini qanday saqlash mumkin?

"Moliyaviy yostiqcha" mablag'larini saqlashning muhim mezoni – bu, jamg'armalarни ilojsiz vaziyatlarda mablag'larni tezda olish va kerakli miqdorda foydalanish imkonini beradigan usulda saqlash zarur. Shu nuqtai nazardan, "Moliyaviy yostiqcha" mablag'larini saqlashning quyidagi turlarini ko'rib chiqishingiz mumkin:

1. *uyda saqlash* – bu usulning afzalligi pullarni qo'l yetadigan joyda joylashganida, ya'ni uydan chiqmagan holda daromadingizdan ajratgan pulingizni qo'shib qo'yishingiz mumkin. Biroq, ko'zda tutilmagan mavjudligini hisobga olishingiz kerak: kutilmagan holatlar (yong'in, sel va b.), inflyatsiya, boshqa maqsadlar uchun pulni sarflab yuborish ehtimoli va eng muhimi, xavfsizlikning ta'minlanmagani.

Agar uuda pul saqlashga qaror qilsangiz, temir sandiq (seyf) sotib olish haqida o'ylab ko'ring.

2. depozit qutichalarida saqlash – pullaringizni saqlash xizmati uchun haq to'laydigan bankdagi shaxsiy temir sandig'ingiz (seyfingiz). Ushbu usul har safar bankka borishni talab qiladi: depozit qutisi to'ldirilganda, siz bank filialiga tashrif buyurishingiz va zaxirani naqd pul bilan to'ldirishingiz kerak.

3. onlayn depozit – zaxirani saqlash uchun foydali tanlov, chunki masofadan turib amaliyotlarni bajarish mumkin – omonatingizni bankka borib, naqd pul bilan to'ldirishingiz shart emas: siz istalgan vaqtda bankning mobil ilovasidan foydalanishingiz mumkin. Buning uchun telefon (smart telefon), internet va bank kartangiz bo'lsa kifoya.

4. bir necha usulni diversifikasiyalash - zaxira uchun mablag'laringizning bir qismi uyda saqlashingiz, bir qismini esa onlayn depozitlarda joylashtirishingiz mumkin. Shunday qilib,, ko'zda tutilmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, sizning "moliyaviy yostiqchangiz" naqd va naqd pulsiz shaklida bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. 2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida//
<https://lex.uz/ru/docs/-5186044>
2. 2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to 'g'risida//
<https://lex.uz/docs/-4635016>
3. Burxonov E.M. Mahalliy byudjetlarni muvozanatlashning iqtisodiy va huquqiy masalalari. - Toshkent: Узбекистан, 2017.
4. Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=4.63) Passport:
<http://sjifactor.com/passport.php?id=2223Q>
5. Rustamova M.M., Dementiev A.N. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining muvozanatlashning ba'zi muammolari // O'zMU axborotnomasi. 2020.